

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida
kelishuvning
7-ILOVASI**

**Plastik kartalarga ish haqi loyihasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

MBX – masofaviy bank xizmati;

Ro‘yxat – Mijozning ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi barcha xodimlarining (ishchilarining) ro‘yxatini o‘z ichiga olgan, Bank belgilagan shaklda taqdim qilinadigan hujjat;

Plastik karta – Karta saqlovchisiga Karta hisobvarag‘i bo‘yicha bir necha marotaba transaksiya o‘tkazish imkoniyatini ta‘minlaydigan, Bank yoki O‘zbekiston Respublikasi tijorat banki tomonidan chiqarilgan, “UZCARD EMV” tizimining so‘mdagi mikroprotessorli plastik kartasi;

Tartib – ish haqi loyihasiga xizmat ko‘rsatish tartibi. Ushbu tartib Bankning Saytida joylashtirilgan.

“Kapital 24” Filiali – “Kapitalbank” ATB “Kapital 24” chakana biznes filiali (MFO 01158; OKED kodi 64190; INN 207275139).

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib Mijoz tomonidan berilgan Arizaga asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi), arizaga asosan Bank Mijozga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni, shuningdek, pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni (keyingi o‘rinlarda “ish haqi loyihasi”) Mijoz xodimlari uchun Bank tomonidan emissiya qilingan plastik kartalarga kirim qilish tizimini joriy qiladi.

Bunda, hisobvaraqlar ochish ham qo‘shgan holda ish haqi loyihasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlarni bajarish Bankning tanlovi bo‘yicha to‘liq “Kapital 24” Filialiga yuklatilishi mumkin. Ushbu holatda Mijoz Bankka berilgan Arizadan tashqari, “Kapital 24” Filiali boshqaruvchisi nomiga ish haqini kirim qilish uchun tranzit hisobvaraqlar ochish haqida alohida Ariza beradi, bu “Kapital 24” Filialida hisobvaraqlar ochish to‘g‘risida shartnoma tuzish hisoblanadi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Tariflar, shuningdek Mijoz tomonidan lozim darajada to‘ldirilgan va imzolangan Ro‘yxat, birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida Ish haqi loyihasiga xizmat ko‘rsatish shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) orqali tuzilgan hisoblanadi. Bunda, Mijoz tomonidan ushbu Tartib doirasida berilgan har qanday Ariza Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.3. Mijoz Bankka yoki “Kapital 24” Filialiga Ro‘yxatdagi barcha o‘zgarishlar hiqida, shu jumladan, xodim ishdan bo‘shatilganda yoki ishga yangi xodim (ishchi) olinganda xabar beradi.

2.4. Mijozning ish haqi loyihasida qatnashuvchi har bir xodimiga (ishchisiga) ish haqini kirim qilish uchun Bank yoki “Kapital 24” Filiali qonunchilikka muvofiq taqdim qilingan hujjatlarga asosan karta hisobvarag‘i (keyingi o‘rinlarda “karta hisobvarag‘i”) ochadi va Plastik kartalar beradi. Mijozning ish haqi loyihasida qatnashuvchi xodimiga (ishchisiga) Plastik karta u bilan alohida tuziladigan Jismoniy shaxsning so‘mdagi UZCARD EMV plastik kartasiga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida shartnomaga (keyingi o‘rinlar “Jismoniy shaxs bilan Shartnoma”) asosan beriladi.

2.5. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlar har kirim qilinganida, Mijoz Bankka yoki “Kapital 24” Filialiga rahbar va bosh buxgalter (agar u bo‘lsa) tomonidan imzolangan, Mijozning muhri bilan (agar mavjud bo‘lsa) tasdiqlangan qaydnomani, shuningdek, elektron ko‘rinishdagi qaydnomani taqdim qiladi. Mijozga MBX orqali xizmat ko‘rsatilganida ERI bilan imzolangan qaydnoma elektron shaklda (keyingi o‘rinlarda “elektron qaydnoma”) MBX orqali yuborilishi mumkin. Bunda, elektron qaydnoma rahbar, bosh buxgalter (agar u bo‘lsa) imzosi va Mijozning muhri (agar mavjud bo‘lsa) tasdiqlangan qog‘ozdagi qaydnomaga teng hisoblanadi. Qaydnomalar Mijoz tomonidan Bank yoki “Kapital 24” Filiali o‘rnatgan shakl bo‘yicha tuziladi

III. TARAFLARNING MAJBURIYATI

3.1. Bank yoki “Kapital 24” Filialining majburiyatlari:

3.1.1. Taqdim qilingan Ro'yxat bo'yicha Mijozning ish haqi loyihasida qatnashuvchi har bir xodimiga (ishchisiga) hisobvaraqa ochish, karta chiqarish to'g'risidagi arizaga, shaxsni tasdiqlovchi hujjatga hamda jismoniy shaxs bilan alohida tuziladigan Shartnomaga asosan karta hisobvaraqa ochish va Plastik karta berish;

3.1.2. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni kirim qilish uchun Mijozning arizasiga asosan tranzit hisobvaraqa ochish;

3.1.3. Tranzit hisobvaraqa pul mablag'lari kelgandan va Mijoz tomonidan to'g'ri to'ldirilgan qaydnoma taqdim qilingandan keyin 2 (ikki) bank kuni ichida ish haqi loyihasida qatnashuvchi Mijoz xodimlarining (ishchilarining) karta hisobvarag'iga Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar summasini kirim qilish.

3.2. Mijozning majburiyatlari:

3.2.1. Rahbar va bosh buxgalter (agar u bo'lsa) tomonidan imzolangan hamda Mijozning muhri bilan tasdiqlangan, ish haqi loyihasida qatnashuvchi Mijoz xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Ro'yxatni qog'ozda va elektron ko'rinishda taqdim qilish. Mijozga MBX orqali xizmat ko'rsatilsa, Ro'yxat Bank o'rnatgan shaklda elektron usulda taqdim qilinishi mumkin;

3.2.2. Bankni yoki "Kapital 24" Filialini Ro'yxatdagi o'zgarishlar haqida u o'zgartirgan kundan boshlab 1 (bir) bank kuni ichida xabardor qilish;

3.2.3. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni tranzit hisobvaraqa ko'chirib berish.

3.2.4. pul mablag'lari tranzit hisobvaraqa kirim qilingan kunda ushbu Tartibning 2.5 bandiga asosan qaydnoma taqdim qilish;

3.2.5. Shartnoma bekor qilinganda ushbu ish haqi loyihasi doirasida berilgan Plastik kartalarni Bankka yoki "Kapital 24" Filialiga qatarib berish lozimligi haqida barcha xodimlariga (ishchilariga) xabar berish;

3.3. Vositachilik haqi to'lanmagan taqdirda Bankning uni Hisobvaraqdan akseptsiz tartibda yechib olish va pul mablag'larini Mijozning topshirig'isiz memorial order bilan yechib olish huquqi mavjud, Mijoz bunga o'zining qaytarib olinmaydigan va nizosiz roziligini beradi. Mijozning hisobvarag'ida vositachilik haqini qoplash uchun pul mablag'lari mavjud bo'lmaganida yoki yetarli bo'lmaganida, qarzdorlikning qoplanmagan qismi tegishli tartibda ijro qilinadigan to'lov talabnomasi qo'yish orqali Kartoteka-2 ga joylashtiriladi. Ushbu to'lov talabnomasi biror-bir ko'shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

3.4. Taraflar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tarafning yozma roziligisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.5. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

IV. TARAFLARNING HUQUQI

4.1. Bank yoki "Kapital 24" Filialning huquqlari:

4.1.1. amaldagi Bank Tariflariga asosan Mijozdan vositachilik haqini undirish;

4.1.2. Quyidagi hollarda Mijoz xodimlarining karta hisobvarag'iga ish haqini qirim qilmasilik;

- Mijoz qaydnoma taqdim qilmagan bo'lsa;

- Mijoz tomonidan taqdim qilingan qaydnomada xatolar va noaniqliklar bo'lsa;

4.1.3. Ushbu Tartibning 4.1.2 bandi buzilganda Mijoz xodimlarining (ishchilarining) karta hisobvarag'iga kirim qilinishi kerak bo'lgan mablag'larni 3 (uch) bank kuni ichida ular oldin qaysi hisobvaraqdan kirim qilingan bo'lsa o'sha talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqa qaytarish;

4.1.4. Ushbu Tartibning 4.1.2 bandida ko'rsatilgan hollarda mablag'larni mablag'lar ko'chirib berilgan kunda (agar ushbu kun kalendar oyidagi oxirgi bank kuni bo'lsa) ular oldin qaysi hisobvaraqdan kirim qilingan bo'lsa Mijozning o'sha talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga qaytarish;

4.1.5. Ish haqi loyihasida qatnashuvchi Mijoz xodimi tomonidan Bank Saytida joylashtirilgan Plastik kartalardan foydalanish bo'yicha Bank yo'riqnomalariga rioya qilinmaganda, Ish haqi loyihasida qatnashuvchi Mijoz xodimining (ishchisining) Plastik kartasiga xizmat ko'rsatishni to'xtatish.

4.2. Mijoz Bank yoki "Kapital 24" Filialidan Ish haqi loyihasida qatnashuvchi Mijoz xodimi (ishchisining) karta hisobvarag'iga ish haqi kirim qilinganligini tasdiqlashni yozma ravishda so'rash **huquqiga ega.**

4.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

V. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, MBX va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

5.2. Ish haqi loyihasida qatnashuvchi Mijoz xodimlarining (ishchilarining) karta hisobvarag'iga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni kirim qilishning qonuniyligi uchun Mijoz javobgar bo'ladi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Shartnoma Ariza va Ro'yxat berilgan vaqtdan kuchga kiradi, Taraflardan biri Bankka taqdim qilinadigan hisobvaraqlarni yopish to'g'risidagi Arizaga asosan uni bekor qilish istagini bildirmagunicha muddatsiz bo'ladi.

6.2. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilishini yoki to'xtatilishi mumkin:

- MBX va ushbu Tartibda nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bir tomonlama;

- Taraflardan birining tashabbusiga ko'ra ikkinchi Tarafni shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan 30 (o'ttiz) bank kuni oldin ogohlantirish sharti bilan, Mijoz barcha majburiyatlarini bajargan va Shartnoma bo'yicha Bank oldida qarzdorligi mavjud bo'lmasa.

6.3. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Taraflar o'z majburiyatlari bo'yicha, agar ular mavjud bo'lsa, barcha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish majburiyatini oladilar.

6.4. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

6.5. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

6.6. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.